

## PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING AMALIY AHAMIYATI

**Tursunboyeva Shirin Farhodjon qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti.*

*Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi*

*1-bosqich magistratura talabasi*

*G-mail: mijoza310699@gmail.com*

**Annotatsiya:** PISA baholash ta'limining amaliy ahamiyati, o'quvchilarni fanlardan savodxonligini baholashga xizmat qiladigan xalqaro baholash dasturi bo'lib, olingan bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash, oqilona qaror chiqarish, mustaqil fikrlash, dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'nikma, tafakkur, tajriba, inovatsiya, salohiyat, baholash, kompetensiya, dastur, loyihalash, ilmiy-tadqiqot.

**Аннотация:** Практическое значение моего оценочного образования PISA заключается в том, что это международная программа оценивания, которая служит для оценки грамотности студентов в области науки и фокусируется на применении их знаний и навыков в реальных жизненных ситуациях, принятии мудрых решений, независимом мышлении и формировании мировоззрения.

**Ключевые слова:** умение, мышление, опыт, инновации, потенциал, оценка, компетенция, программа, дизайн, исследования.

PISA ta'lim turi bu o'qish tabiiy fanlar va matematikadan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. U hech qanday o'quv dasturini ham belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi.

PISA (inglizcha –Programme for International Student Assessment)- turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda olingan bilimlarni amaliyotga qo'llash ularni hayotga tadbiq etish dunyo qarashni oshirishga qaratilgan dastur.

Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997 yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marotaba qo'llanilgan. PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YalM)ning 1%ga o'sishini ta'minlaydi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga

erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqishlarini oshirish va shu bilan birga o'qtuvchilarni har tomonlama ta'lim tarbiyaga etiborlarini kuchaytirishni talab qiladi.

Xalqaro baholash bugugi kunda bizning maktablarda ham keng qo'llanilmoqda. Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.

### **PISA tadqiqoti quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:**

-ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamlı xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;

-tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15yoshli o'quvchilar ishtirok etadi;

-o'quvchilarni "hayotga tayyorgarlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

-o'quvchilarning matematika, oqish (matinni tushunish), tabiiy fanlar yo'nalishlari va global muammolarni hal etish borasidagi funksional savodxonligi baholanadi;

-tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumotlar olish imkonini beradigon kontekst axborot to'planadi;

O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi quyidagilarga imkon yaratdi;

-umumta'lim maktablarida bitiruvchilarning ta'lim olishlarini davom ettirishga qay darajada tayyor ekanini aniqlash;

-mamlakatda umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;

-o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlar ta'lim tizimlari haqida qiyosiy ma'lumotlar olish

PISA tadqiqotlari haqida qo'shimcha ma'lumotlarni O'zbekistonda mazkur tadqiqotni o'tkazishga mas'ul hisoblangan Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazning rasmiy veb-sayti ([markaz.tdi.uz](http://markaz.tdi.uz)) va IHTT ([www.oecd.org/pisa](http://www.oecd.org/pisa)) saytidan olish mumkin.

-PISA tadqiqotlari nima uchun har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi va unda faqat **15 yoshli o'quvchi qatnashadi?**

PISAning asosiy vazifasi mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan

ta'minlash va qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab quvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumotlar va tahlillarni o'z ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Agar tadqiqotni o'tkazish davriyligi qisqa muddatda amalga oshirilsa, o'zgarishlar va yangilanishlar uchun yetarli vaqt va kerakli ma'lumotlarni to'play olmaslik muammosi vujudga keladi.

PISA kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun nima qilish kerak? Yaxshi natijalar ko'rsatish uchun hech bo'lmaganda 2 maqsadga ega bo'lish kerak: birinchisi o'qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalaniladigan materiallarni tayyorlashdir. Zero xalqaro tadqiqotlarda bejizga maktablarda ta'lim sifati o'qituvchilarning kasbiy darajasiga bog'liq, deb aytishmaydi. Demak, o'qituvchilarni tayyorlashga mablag' ajratish va yangi o'quv materiallarini yaratish kerak. Tegishli vazirliklar malaka oshirish tizimiga investitsiya kiritish, moliyalashtirishi va uslubiy qo'llab quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratishi lozim. Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o'zgartirish zarur. Buning uchun biz o'qituvchilarni tayyorlashimiz yana shu bilan birga rivojlantiruvchi ta'limning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o'qituvchilarni ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlashimiz kerak. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ta'lim sifatini yanada takomillashtirish uchun xalqaro baholashni yanada maktablarda keng joriy etish, xalqaro baholashlarning ta'lim tizimida naqadar ahamiyatga ega ekanligini maktablar kesimida shuningdek o'qituvchi yoshlar orasida muhim ekanligini anglamoqlari zarur. Shuni aytib o'tishimiz kerakki bugungi kunda xalqaro baholash rivojlangan davlatlar orasida keng qo'llaniladi. Bu davlatlarni xalqaro baholashlardan foydalanishi

ularni ta'lim tizimini yanada isloh qilish uchun keng yo'l ochdi. Qaysi mamlakatda ta'lim tizimi kuchli bo'lsa o'sha davlatda o'sish kuchli bo'ladi va bui mamlakatni yanada yuksalishiga xizmat qiladi. Odatda PISA topshiriqlarni muayyan o'quv dasturining qaysidir mavzusiga qat'iy bog'lanmagan. PISA tadqiqotida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash uchun o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarga asoslangan maxsus topshiriqlar taqdim etiladi. Biroq PISA-bu faqat topshiriqlar emas. Bu boshqacha fikrlash uslubi. Shu sababli bu baholash dasturi o'quvchilarni kreativlikka undaydi ularda hayotga boshqacha ko'z bilan qarashni o'rgatadi, muammolarni faqat bir tomonlama emas balkim ularning xilma xil yechim topishni o'rgatadi. Mamlakatimizda ta'lim oluvchi yoshlarning ijodiy g'oyalarini har tomonlama qo'llab quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida duch kelgandik. Mazkur hujjatda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini tashkil etishga qaror qilinib, uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib boorish; ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish; umumiy o'rta ta'lim muassasalarning xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash; O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarni boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash belgilandi.

O'z navbatida kelgusida mamlakatimiz ta'lim sifatini baholash bo'yicha quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ko'zda tutildi:

- PISA(The Programme for International Student Assessment)-15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik **darajasini baholash;**
- PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study)-boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matinni o'qish va tushunish darajasini baholash;
- TIMSS(Trends in International Mathematics and Sciens Study)4va8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik **darajasini baholash;**

shuni ham aytib o'tishimiz kerakki bugungi kunda barcha mamlakatlarning ta'lim tizimlarida xalaro baholashlardan foydalanish, oldingiga nisbaatan ta'lim tizimida o'sish kuzatilmoqda . Bu xalaro baholashlar o'zini oqladi va samarasini berdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davletshin M.G Zamonaviy maktab o'quvchisining psixalogiyasi. – T; O'zbekiston 1999
2. Elektron kutubxona ma'lumotlari [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. O'zbekiston Respublikasining „Kadrlar tayyorlash milliy dasturida''gi Qonuni Oliy Ta'lim: Meyoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami Toshkent 2004
4. Davlatov K Dva b. Mehnat va kasb ta'limi hamda metodikasi- T: O'qituvchi 1992
5. Toshboyeva, S.Q Hamidov, S. X, Qurbanova, L. M (2021). Science and Education